ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ps.f..n, dotsent Salayeva Navbahor
Allamova Shirinoy UrDU 241-guruh psixologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya:

Maqolada pedagogik texnologiyalardan foydalanishning shaxs rivojlanishi va shakillanishiga ta'siri hamda didaktik, tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etishga oid nazariy bilimlar va pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar yoritilgan.

Kalit so'zlari: pedagogik texnologiya, ta'lim -tarbiya, shaxs taraqqiyoti, rivojlantiruvchi ta'lim , metodologik vositalar, an'anaviy ta'lim

"Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi" (M.V.Klarin).

KIRISH

Ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, pedagoglarni zamonaviy bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan boxabar bo'lib va ta'lim amaliyotiga tadbiq etish bugungi kunning dolzarb vazifasidar. Pedagogik texnologiya-bu ta'lim jarayonlarini samarali va sifatli tashkil etish uchun o'quvchilarga ta'lim berish va o'rgatishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga asoslangan ilmiy -pedagogik soha hisoblanadi. Pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilim olish jarayayonini osonlashtirish,sifatini oshirish, ta'limni zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish va pedagogik jarayonni optimollashtirishdir.

Pedagogik texnologiya o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlami namoyon etadi: 1) Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonnni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi. 2).Pedagogik texnologiya didaktik, tarbiyaviy xarakterdagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etishga oid nazariy va amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi. 3).Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir. 4). Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni, u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

5) . Pedagogik texnologiya - shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashga nisbatan yagona, qatiiy, me'yoriy (standart) talablar qo'yilmaydi.

6). Har bir pedagog u faoliyat olib yuritayotgan ta'lim-tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi shart-sharoitlarini inobatga olgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

7). Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamolot) birligini ifoda etadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Pedagogik texnologiyaning yo'nalishlari ko'p bo'lib, ulardan ayrimlari quyidagilar:

Hozirgi an'anaviy ta'lim. XVII asrda Ya.A.Komenskiyning didaktik tamoyillari asosida shakllanib, hozirda dunyodagi maktablarda eng ko'p qo'llanayotgan sinf-dars tizimidan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo'nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo'nalishlarda rivojlanmoqda.

Pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar: hamkorlik pedagogikasi, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasi va boshqalar.

O'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalar o'rgatilayotgan bilimlarning didaktik tizimi chuqur mazmunga ega bo'lishi, bilimlarga tizimli nuqtai nazardan yondashish, o'quvchilarga bilimlarni egallashning eng maqsadga muvofiq yo'llarini o'rgatish kabi tamoyillarga asoslanadi.

O'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etilishga asoslangan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiyalarga tabaqalashtirilgan, individuallashtirilgan, dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari; ta'limning jamoa usuli, guruhli, kompyuterli ta'lim texnologiyalari kabilar kiradi.

Tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar. Bularga o'quvchining tabiiy imkoniyatlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning tabiiy imkoniyatlari va boshqa tabiatga muvofiq imkoniyatlardan to'liq foydalanishni amalga oshirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar kiradi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. Bularga o'quvchi shaxsining ijobiy sifatlarini, ayrim sohalardagi bilimlarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari kiradi.

. Respublikamizning taniqli olimlari ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalami yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bular orasida J.G'.Yo'ldoshev, S.A. Usmonov, N.S.Sayidahmedov, R.H.Jo'rayev, Q.Y.Yo'ldoshev kabi ta'lim-tarbiyajarayonlari fidoiylarining nomlari alohida hurmat va e'tiborga molikdir. Jamiyatimizga qanchadan-qancha bilimli va malakali kadrlarni yetishtirib kelgan pedagogikaning o'ziga xos uslublari mavjud. Pedagogik jamoatchilikning aksariyati mana shu yo'ldan bormoqda, ammo mustaqillik va kelajak sari intilayotgan jamiyatga bu yo'l kutilgan samara bilan xizmat qila olmaydi.(Chunki buning zamirida ma'lum sabablar mavjud, ya'ni; 1. Rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish uchun, aholi ta'limini jadallashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurligi; 2. Fan-texnika taraqqiyotining o'ta rivojlanganligi natijasida axborotlar tizimi hajmining tobora ko'payib borayotganligi; www.ziyouz.com kutubxonasi 3. Zamonaviy texnika va texnologiyalarni ta'limga tatbiq etish, ta'lim jarayonini kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida axborot texnologiyasi (AT) va texnik vositalar (TV)dan foydalanish kerakligi; 4. Talaba va o'qituvchi faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, o'qituvchi ta'lim maqsadi va mazmunini puxta bilishi, ta'lim usullari, metodlari va vositalarini yaxshi egallagan bo'lishi, talabaning qiziqish va intiluvchanligini to'g'ri yo'lga yo'naltira olishi lozimligi; 5. O'qituvchi ta'lim jarayonini yuqori darajada, samarali tashkil etish uchun maqsad va vazifalarni aniq belgilashi, ta'lim natijasini oldindan qayd etishi, o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlashga erishishi kerakligi; 6. O'quv jarayoni uchun zarur moddiy-texnik bazaning yaratilgan bo'lishligi; 7. Ta'lim-tarbiya jarayoni natijalarini xolisona va obyektiv baholash, talabalarning bilim va malakalarini

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

egallash jarayonini nazorat qilish va baholashni avtomatlashtirishga erishilganligi; 8. O'sib kelayotgan yosh avlodni hayotga mukammal tayyorlash talabi ularga eng ilg'or bilim berish usuli hisoblangan obyektiv borliqqa majmuiy yondashuv tamoyilidan foydalanishni talab qilishi kabi muammolardadir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya ta’lim jarayonlariga interaktiv qurilmalar, multimedia vositalari orqnali an’anaviy o‘qitish metodlarini takomillashtirish va yangi o‘qitish metodlarini yaratishga , shuningdek o‘qitishning interaktiv va kommunikativ shakillarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, faol ishtirok etishlarini ta’minlashga olib keladi. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yaxshilashga va o‘qituvchilarga pedagogik mahoratni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo’lib, u ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mohigul Olimjon
2. Pedagogika o‘qitish metodikasi Pedagogika o‘qitish metodikasi Ko‘rganlar, jami: 12905 Janr/bo‘lim: Pedagogika, Darsliklar, Fan va ta`lim Muallif: O‘tkir Yo‘ldoshev
3. Mirsaidov K. «Maxsus fanlarni o‘qitish va ishlab chikarish ta’limi». T.: «O‘qituvchi», 1996.